

MILLIY ZARDO‘STLIK ORNAMENT NAQSHLAR

Begmurodov Asomiddin, Asadova Sitora

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zardo‘zlik-bezak san’atining bir turi, naqsh qismlari esa muayyan tartibda bir maromda takrorlanishidan hosil bo‘ladigan shakllar, o‘simlik, qush, hayvon va boshqalarning uslublashtirilgan tasvirlaridan tarkib topgan bezak ekanligi haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: zardo‘zlik, naqsh, chambarak, qaychi, igna, angishvona, patila.

Har birimiz milliy merosini o‘ziga xos tarzda tushunamiz. Sayyohlar uchun bu qadimiy davlat me’morchiligi, ishbilarmon mehmonlar uchun rang-baranglik va o‘ziga xoslik, ko‘pchilik fuqarolar uchun esa urf-odatdir.

Zardo‘zlik bezak san’ati turi; amaliy san’atining zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan soha hisoblanadi. To‘rtburchak korcho‘pga o‘rnatilgan baxmal shoyi charm va boshqa matolarga zardo‘zi usulida kashta tikiladi. Kashtada ba’zida tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi. Oldindan tayorlangan rassomlar tomonidan yaratilgan mujassamot nusxasi ko‘chirilgan qog‘ozlardan keng foydalaniladi. Matoga tikilgan axta qog‘ozlar ip bilan bir tomon-Lama qoplab tikiladi (mustahkamlovchi chok uchun zar ipga mos rangdagi ipdan foydalaniladi), natijada naqshgul yuzasi zar iplar bilan qoplanadi, matoning teskarisida naqshgul shakliga hosil bo‘ladi.

Zardo‘zlar bezak yaratishda bir necha usulni qo‘llaydilar: zardo‘zi zamindo‘zi va zardo‘zi guldo‘zi, birishimdo‘zi(ipak ishlatilganda), pulakdo‘zi(tugmasimon metal yaproqchalar qo‘llanganda). Mustahkamlovchi va tahrir choklarning bir necha xilini qo‘llanilishi hamda ularning naqsh mujassamoti bilan uyg‘unlashuvi zardo‘zi buyumlarga joziba va nafosat baxsh etadi; ularning badiiy qimmati, xomashyosi, tikilishi hamda zardo‘z ustaning did va mahoratiga bog‘liq. Naqsh mujassamotida keng tarqalgan an’ana Zardo‘zlik badiiy hunarmandlik turi sifatida yaqin va O‘rta sharqda keng tarqalgan. Asosan, binolar ichini bezaydigan buyumlar, ayollarning liboslari Zardo‘zlik bilan tayyorlangan.Arxeolog topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar O‘rta Osiyo xalqlari orasida zardo‘zi kiyim va badiiy buyumlar tikish qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi.Ispan elchisi Klavixo o‘z estaliklarida Zardo‘zlik usulida tikilgan ko‘rpato‘shaklar, ipak matoga zar taqilgan qimmatbaho pardalar, chodirlar haqida, erkak va ayollarning zar ipda tikilgan kiyimlari haqida zavq bilan yozadi. Abdurazzoq

Samarqandiy o'zining "Hindiston safarnomasi" risolasida Shohrux Hindistonning Kalkutta viloyati hukmdori huzuriga yuborgan elchilari orqali unga zardo'zi do'ppi sovg'a qilgani qayd etilgan [3].

Zardo'zlik san'atida naqshlar buyumga qanday joyning bezatilishiga qarab o'ziga xos turli-tuman uslubda bajarilish texnologiyasiga va mazmuniga ega bo'ladi.



1-rasm. Zardo'zlik naqshlari

Naqsh-arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o'simlik, geometric shakllar va boshqalarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezak. Zardo'zlikda chok yordamida turli ko'rinishdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishida hosil qilingan. Zardo'zlikda gular turidagi naqshlar uchun barg atamasi nomi bo'lib qolgan. Masalan: To'rt yaproqli gul, olti yaproqli gul, sakkiz yaproqli gul, lola gul va hokazolar. Keng hajmdagi gullar guli kosagul (v-4) degan nomlar bilan yuritiladi.

Barg turidagi naqshlar quyidagilarga bo'lingan: dona-dona yaproqlar-yakka barg, serbarg, majnuntol yaprog'I bargi va hokazolar. Gul turlari uzoq davomli rivojlanishlarida shu qadar ko'p uslublarga va geometrik ko'rinishlarga ega bo'lgan. Masalan, to'rt yaproqli gul naqshi ana shunday o'zgarishi sababli, endilikda u kungitador peshtoqni eslatuvchi chor madohil(to'rt darvoza) deb atala boshladi.

Rang-barang naqshli sirkor me'moriy yodgorliklar ulardagi turli-tuman geometrik naqshlar zardo'zlik gullari va kashtalarini ijodiy jihatdan boyitishdagi boy materiallar bo'lib xizmat qiladi [4].



2-rasm. Qadimgi zardo'zi liboslar

'Chambarak —korcho'b, uning to'n, jun hamda kichik hajmdagi buyumlar uchun mo'ljallangan uch turi mavjud. Ular katta-kichikligi bilan bir-biridan farqlanadi. Korcho'b uzunligi 320 santimetrgacha bo'lgan ikki teng yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni xohlagan kattalikka keltirish mumkin.



3-rasm. Patila va Chambarak

Patila oddiy yog‘ochdan chorrax (to‘rt qirrali) va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo‘rg‘oshin kuyib vazminlashtirilgan bo‘ladi. Unga to‘rt qavat qilib zar o‘raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. Bunday patilalar ipni zich qilib o‘rashni ta‘minlagan [2,1].

Angishvona - forscha, angusht, ya‘ni barmoq, vona saqlovchi degan ma‘noni bildiradi. Yostiq, ko‘rpa tikishda qo‘lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g‘ilof.

Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan, ya‘ni nina toyib ketmasligi uchun chuqurchalardan iborat bo‘ladi. Qadimda metall kam bo‘lganligi uchun charmdan ham tayyorlangan.

Zardo‘zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi bo‘ladi, uni o‘rta barmoqqa ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalgani chap qo‘lning uchta barmog‘iga taqilib ishlanadi. Charmli angishvonani fabrikada metallardan ishlangani ham bo‘ladi.



4-rasm. Angishvona va tikuv buyumlari

Igna — zardo‘zlikda chatish-tikish uchun ishlatiladigan o‘rtacha kattalikdagi igna.

Qaychi shuturgardan-zardo‘zlikda ishlatiladigan qaychi turi bo‘lib, u tuya bo‘yin qaychi degan ma‘noni beradi. Ya‘ni tuya bo‘yniga o‘xshash qaychi bo‘lib gul qirqishda ishlatiladi. Zardo‘zlikda oddiy qaychilar ham ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Matmusayev U.M “To‘qimachilik materialshunosligi” O‘zbekiston 2005-yil.
2. Sidorenko A.I, Artikov A.R, Radjabov R.R “Zolotoye shityo Buhari” 1984-yil.
3. S.Bulatov “O‘zbekiston san‘ati tarixi” Toshkent 1991-yil.
4. R.Xasanov “Amaliy bezak san‘ati metodikasi” 2003-yil Toshkent.